

## 2017 yil yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5,7 foizga** ko'paydi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **104,3 foiz**.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **40,8 foiz**.
- Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida mahalliy korxonalar ulushi - **53,3 foiz**.

2017 yil yanvar-oktyabr oylarida respublika korxonalaridan 113,5 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizni tashkil etdi.


Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalaridan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,6 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 12 foidan oshib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 foizni tashkil etdi.

### 2017 yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi




Sanoatda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi, sanoatning quyidagi faoliyat turlarida mahsulotlar hajmining oshishini ta'minladi: yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish (2016 yil 10 oyga nisbatan o'sish sur'ati 136,8 foiz), mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim priseplar va boshqa tayyor metal buyumlarni ishlab chiqarish (136,5 foiz), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish (116,6 foiz), ko'mir, qo'ng'ir, neft va tabiiy gaz qazib olish (114,7 foiz), boshqa nometall mahsulotlarni ishlab chiqarish (108,1 foiz).

**2017 yil yanvar-oktabr oylarida hududlarning respublika sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
(*respublikaning jami sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda*)



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida Toshkent shahar (umumiy hajmning 19,2 foizi), Toshkent (14,8 foizi), Navoiy (9,3 foizi), Andijon (9,2 foizi), Qashqadaryo (7,7 foizi) viloyatlari korxonalarining hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2017 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari**  
(*o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda*)



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2016 yil yanvar-oktabrga nisbatan 127,9 foizga), Xorazm (119,3 foiz) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (108,2 foiz) sezilarli darajada mahsulotlar hajmi oshishini ta'minlandi.


Tayyor mahsulot turlarining kengayishi va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, iste'mol tovarlar ishlab chiqarilishining 2016 yil yanvar-oktabrga nisbatan (104,3 foizga) o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 40,8 foizni tashkil etdi.

**2017 yil yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




**Yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**

(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda)




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tabaqalanishining tahlili, Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (3512,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### 2017 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



### 2017 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)




Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun qulayroq iqtisodiy sharoitlarni yaratish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan ishlar, mahalliy ahamiyatga ega korxonalar (davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalarsiz) rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,5 trln.so'mni tashkil etib (jami sanoatdagi ulushi 53,3 foiz), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,2 foizga o'sishi ta'minlandi.

Respublika bo'yicha ushbu korxonalarining ishlab chiqarish hajmi eng ko'proq Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari korxona-

lari salmog'iga to'g'ri keladi. Eng yuqori o'sish sur'atlari esa Toshkent (109,4 foiz), Andijon (106,7 foizga), Farg'ona (106,5 foizga) viloyatlarida ta'minlandi.

**2017 yil yanvar-oktabr oylarida jami sanoat ishlab chiqarish hajmida mahalliy ahamiyatga ega korxonalar va davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar ulushi**  
(jami sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda)



Ayni paytda respublikada 48 mingdan ko'proq sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, shu jumladan 8,9 mingta korxonalar 2017 yil yanvar-oktabr oylarida tashkil etildi, ulardan: Toshkent shahriga 2,3 mingta korxonalar, Farg'ona viloyatiga 991 ta korxonalar, Toshkent viloyatiga 897 ta korxonalar, Samarqand viloyatiga - 790 ta, Namangan va Andijon viloyatlariga 600 tadan ortiq korxonalar, Buxoro viloyatiga 400 tadan ortiq korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlariga 300 tadan ortiq korxonalar, Navoiy viloyatiga 200 tadan ortiq korxonalar va Sirdaryo viloyatiga 197 ta korxonalar to'g'ri keladi.